AKSIYA QOIDALARI
«UZCARD bilan TAP»

1. 1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. 1.1. Ushbu Qoidalar ommaviy oferta hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ishlab chiqilgan. Qoidalar «UZCARD bilan TAP» aksiyasini (keyingi o‘rinlarda — Aksiya) o‘tkazish shartlarini, uning ishtirokchilari va g‘oliblarini aniqlash tartibini, Tashkilotchi va Aksiya ishtirokchilarining huquq hamda majburiyatlarini, shuningdek, ushbu Qoidalarda ko‘rsatilgan boshqa shartlarni belgilaydi.

1.2. 1.2. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriy bo‘lib, tovarlar yoki xizmatlarni xarid qilishni talab etmaydi.

1.3. 1.3. Aksiya Toshkent reklama festivali «TAF!26» (keyingi o‘rinlarda — Festival) tashrif buyuruvchilarining faolligini oshirish, UZCARD brendining imiji va taniluvchanligini mustahkamlash, shuningdek, brend bilan interaktiv muloqot tajribasini yaratishga qaratilgan.

1.4. 1.4. Aksiya tashkilotchisi «Yagona umumrespublika protsessing markazi» AJ (keyingi o‘rinlarda — Tashkilotchi) hisoblanadi.

1.5. 1.5. Tashkilotchining aloqa ma’lumotlari:
- telefon raqami: +998 71 200-28-28;
- yuridik manzili: 100011, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 78;
- elektron pochta: mailto:help@uzcard.uz;
- veb-sayt: https://uzcard.uz/uz.

1.6. 1.6. Aksiya Festival doirasida https://taf26.uzcard.uz veb-sayti (keyingi o‘rinlarda — Aksiya sayti) orqali o‘tkaziladi.

1.7. 1.7. Aksiyada voyaga yetgan, Festivalga tashrif buyurgan, Aksiya saytida ro‘yxatdan o‘tgan va ushbu Qoidalar shartlarini bajargan jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin (keyingi o‘rinlarda — Ishtirokchilar).

1.8. 1.8. Aksiya davri: 2026-yil 10-oktabr kuni Toshkent vaqti bilan (GMT+5) soat 09:00:00 dan 18:30:00 gacha. G‘oliblarni aniqlash 2026-yil 10-oktabr kuni soat 18:30 dan 19:00 gacha amalga oshiriladi. Tashkilotchi G‘oliblarni aniqlash vaqtini o‘zgartirishga haqli, bunda Ishtirokchilar ushbu Qoidalarning 1.5-bandida ko‘rsatilgan Tashkilotchining rasmiy veb-saytida va/yoki Aksiya saytida albatta xabardor qilinadi.

1.9. 1.9. Ushbu Qoidalarning amaldagi tahriri Aksiya saytida joylashtiriladi. Tashkilotchi Qoidalarga o‘zgartirishlar kiritishga haqli. Agar yangi tahrirda boshqa muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, u joylashtirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi.

1.10. 1.10. Ushbu ommaviy ofertaning aksepti deb Ishtirokchi tomonidan ushbu Qoidalarning 3-bo‘limida nazarda tutilgan harakatlarning (Aksiya saytida ro‘yxatdan o‘tish va ishtirok etish shartlarini bajarish) amalga oshirilishi e’tirof etiladi.

1.11. 1.11. Ushbu Qoidalarda G‘olib deb 5-bo‘limga muvofiq komissiya tomonidan noyob ID raqami aniqlangan va Festival hududida ekanini belgilangan tartibda tasdiqlagan Ishtirokchi tushuniladi.

1.12. 1.12. Ushbu Qoidalarda haqiqiy tap deb Ishtirokchining Aksiya saytida joylashgan «TAP» virtual tugmasini bir marta bosishi, ushbu Qoidalarda belgilangan texnik cheklovlarga muvofiq tizimda qayd etilgan holat tushuniladi.

2. 2. AKSIYANING SOVRIN JAMG‘ARMASI

2.1. 2.1. Aksiya sovrin jamg‘armasi Tashkilotchining mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi va umumiy pul jamg‘armasidan iborat bo‘lib, uning miqdori ushbu Qoidalarning 3-bo‘limida belgilangan mexanizmga muvofiq Aksiya davrida o‘zgaradi. Sovrin jamg‘armasining amaldagi miqdori hamda har bir G‘olibga tegishli sovrin summasi haqidagi ma’lumot Ishtirokchilarga Tashkilotchining rasmiy veb-sayti va/yoki Tashkilotchi belgilagan boshqa usul orqali yetkaziladi.

2.2. 2.2. Umumiy sovrin jamg‘armasining eng yuqori miqdori 50 000 000 (ellik million) so‘mni tashkil etadi.

2.3. 2.3. Umumiy sovrin jamg‘armasining amaldagi miqdori Aksiya davri yakunlangach va Qoidalarda nazarda tutilgan faollik bo‘yicha so‘nggi tekshiruv o‘tkazilgach, 2026-yil 10-oktabr kuni soat 18:30:00 da qayd etiladi.

2.4. 2.4. Amaldagi umumiy sovrin jamg‘armasi uch (3) nafar G‘olib o‘rtasida teng taqsimlanadi — har biriga uchdan bir qismi (33,33%), to‘lov summasi texnik jihatdan butun so‘mgacha yaxlitlanadi.

2.5. 2.5. Pul sovrini to‘langanda yuzaga keladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Tashkilotchi tomonidan o‘z mablag‘lari hisobidan to‘lanadi. Soliq summasi G‘olib sovrinidan ushlab qolinmaydi.

3. 3. AKSIYADA ISHTIROK ETISH TARTIBI VA MEXANIKASI

3.1. 3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun shaxs Aksiya saytini ochishi, interfeys tilini tanlashi, mobil telefon raqamini kiritishi, uni bir martalik OTP-kod orqali tasdiqlashi va ushbu Qoidalarni qabul qilishi kerak.

3.2. 3.2. Muvaffaqiyatli ro‘yxatdan o‘tgach, har bir Ishtirokchiga avtomatik tarzda noyob identifikator (ID) beriladi. Ushbu ID G‘oliblarni aniqlashda Ishtirokchining raqami hisoblanadi. Ishtirokchi faqat ro‘yxatdan o‘tishda berilgan bitta noyob IDdan foydalanishi mumkin. Bir Ishtirokchi tomonidan bir nechta IDdan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.3. 3.3. O‘yinning asosiy mexanikasi — Ishtirokchining Aksiya saytida joylashgan «TAP» virtual tugmasini bosishidir. Bir marta haqiqiy bosish («tap») o‘yin qiymatining 100 (yuz) so‘miga teng.

3.4. 3.4. Har bir haqiqiy tap bir vaqtning o‘zida:

– Ishtirokchining shaxsiy o‘yin ko‘rsatkichini (to‘plangan taplar summasini) 100 so‘mga oshiradi;

– agar tegishli summa umumiy jamg‘armaga amalda qo‘shilishi mumkin bo‘lsa, ushbu Qoidalarning 2.2-bandida belgilangan eng yuqori miqdor doirasida umumiy sovrin jamg‘armasini 100 so‘mga oshiradi.

3.5. 3.5. Tezlik bo‘yicha texnik cheklov — bir Ishtirokchi uchun soniyasiga ko‘pi bilan 5 (besh) ta haqiqiy tap. Belgilangan limitdan ortiq bosishlar tizim tomonidan hisobga olinmaydi.

3.6. 3.6. Shaxsiy o‘yin ko‘rsatkichi faqat Ishtirokchining G‘oliblarni yakuniy aniqlashda qatnashish huquqini tasdiqlash uchun ishlatiladi va Tashkilotchining Ishtirokchi oldida pul majburiyatini yuzaga keltirmaydi.

3.7. 3.7. Yakuniy qur’ada qatnashishga ruxsat olish uchun Ishtirokchi kamida 300 000 (uch yuz ming) so‘mlik shaxsiy o‘yin ko‘rsatkichini to‘plashi kerak, bu kamida 3 000 (uch ming) ta haqiqiy tapga teng.

3.8. 3.8. Ishtirokchi vaqtincha faollik ko‘rsatmaganligi sababli shaxsiy o‘yin ko‘rsatkichi kamaymaydi. 3.7-bandda ko‘rsatilgan chegaraga erishilgach, u yakuniy qur’ada qatnashishga ruxsat berish uchun saqlanib qoladi.

3.9. 3.9. Bosishlarni taqlid qilish uchun avtomatlashtirilgan vositalar, botlar, skriptlar va boshqa dasturiy vositalardan foydalanish taqiqlanadi. Bunday harakatlar aniqlansa, Tashkilotchi Ishtirokchining ko‘rsatkichlarini bekor qilishga haqli.

3.10. 3.10. Aksiya saytida haqiqiy taplarni amalga oshirishga to‘sqinlik qilgan texnik nosozliklar yuzaga kelgan taqdirda, Tashkilotchi ko‘rsatkichlar hisoblanmaganligi uchun javobgar bo‘lmaydi. Ko‘rsatkichlarni qoplash imkoniyati haqidagi qaror Tashkilotchi tomonidan har bir holat bo‘yicha alohida qabul qilinadi.

4. 4. UMUMIY JAMG‘ARMANING DINAMIK MEXANIZMI

4.1. 4.1. Ishtirokchilar faolligini saqlab turish uchun Aksiya davri soatlik intervallarga bo‘linadi: 09:00–09:59:59, 10:00–10:59:59 va shu tartibda 18:00–18:30:00 gacha.

4.2. 4.2. Har bir to‘liq soatlik interval yakunlangach, soat 11:00 dagi tekshiruvdan boshlab, tizim bevosita undan oldingi soatlik interval uchun Ishtirokchilar faolligini tekshiradi.

4.3. 4.3. Agar yakunlangan soatlik intervalda Ishtirokchi birorta ham haqiqiy tapni amalga oshirmagan bo‘lsa, undan oldingi soatlik interval davomida ushbu Ishtirokchi tomonidan umumiy sovrin jamg‘armasiga amalda qo‘shilgan summa umumiy jamg‘armadan ayriladi.

4.4. 4.4. Ushbu bo‘limga muvofiq umumiy jamg‘armadan ayriladigan summa Ishtirokchining shaxsiy o‘yin ko‘rsatkichidan ayrilmaydi va ushbu Qoidalarning 3.7-bandida belgilangan ruxsat chegarasiga erishish/uni saqlashga ta’sir qilmaydi.

4.5. 4.5. Faollik bo‘lmagan soatdan oldingi intervalda Ishtirokchi umumiy jamg‘armani oshirmagan bo‘lsa yoki jamg‘arma maksimal miqdorga yetgani sababli tegishli summa amalda qo‘shilmagan bo‘lsa, ushbu Ishtirokchi bo‘yicha kamaytirish amalga oshirilmaydi yoki faqat umumiy jamg‘armaga amalda qo‘shilgan summa doirasida amalga oshiriladi.

4.6. 4.6. Umumiy sovrin jamg‘armasi manfiy qiymatga ega bo‘lishi mumkin emas. Umumiy jamg‘arma kamaytirilgandan keyin Ishtirokchilarning yangi haqiqiy taplari uni ushbu Qoidalarning 2.2-bandida belgilangan maksimal miqdorga yetguncha yana oshiradi.

4.7. 4.7. Faollik bo‘yicha so‘nggi tekshiruv 18:00–18:30:00 oralig‘i natijalariga ko‘ra soat 18:30:00 da o‘tkaziladi. Tekshiruv yakunlangach, umumiy sovrin jamg‘armasining yakuniy miqdori qayd etiladi.

4.8. 4.8. Tizim amalga oshiradigan faollikning avtomatik tekshiruvlari natijalari yakuniy hisoblanadi. Aksiya saytida hujjatlar bilan tasdiqlangan texnik nosozlik holatlari bundan mustasno, Tashkilotchi bunday tekshiruvlar natijalari bilan bog‘liq Ishtirokchilar e’tirozlarini ko‘rib chiqmaydi.

5. 5. G‘OLIBLARNI ANIQLASH

5.1. 5.1. G‘oliblarni aniqlashda bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlarga javob beradigan Ishtirokchilar qatnashishi mumkin:
– Aksiya saytida muvaffaqiyatli ro‘yxatdan o‘tgan va noyob ID olgan;
– kamida 300 000 (uch yuz ming) so‘mlik shaxsiy o‘yin ko‘rsatkichini to‘plagan;
– yakuniy qur’a o‘tkazilayotgan vaqtda Festival hududida shaxsan hozir bo‘lgan;
– ushbu Qoidalarni buzganligi yoki insofsiz/avtomatlashtirilgan ishtirok usullaridan foydalanganligi uchun Tashkilotchi tomonidan chetlatilmagan.

5.2. 5.2. Aksiya davri tugagach, Tashkilotchi G‘oliblarni aniqlashda qatnashishga ruxsat berilgan Ishtirokchilarning noyob ID raqamlari yakuniy ro‘yxatini shakllantiradi.

5.3. 5.3. G‘oliblar dasturiy vosita (tasodifiy tanlash algoritmi) yordamida tasodifiy tarzda aniqlanadi. Yakuniy ro‘yxatdan ketma-ket uch (3) ta turli noyob ID tanlanadi.

5.4. 5.4. Ishtirokchi faqat bir marta G‘olib deb topilishi mumkin. Ishtirokchi G‘olib deb aniqlangach, uning ID raqami keyingi tanlovlardan chiqarib tashlanadi.

5.5. 5.5. Yutuqli ID e’lon qilinganda, G‘olib Festival hududida shaxsan hozirligini tasdiqlashi va 2 (ikki) daqiqa ichida Tashkilotchi vakilida shaxsini tasdiqlovchi tekshiruvdan o‘tishi shart. G‘olib joyida bo‘lmasa yoki hozirligini tasdiqlamasa, ruxsat berilgan qolgan Ishtirokchilar orasida qayta tasodifiy tanlov o‘tkaziladi.

5.6. 5.6. G‘oliblarni aniqlash yakunida komissiya sovrin jamg‘armasining yakuniy miqdori va uch G‘olibning noyob ID raqamlari ko‘rsatilgan bayonnomani tuzadi va imzolaydi. Bayonnoma pul sovrinlarini to‘lash uchun asos hisoblanadi.

5.7. 5.7. Komissiya bayonnomasida qayd etilgan G‘oliblarni aniqlash natijalari yakuniy hisoblanadi va hujjatlar bilan tasdiqlangan texnik nosozlik holatlaridan tashqari, ular ustidan shikoyat qilib bo‘lmaydi.

5.8. 5.8. Tashkilotchi G‘oliblarni aniqlash jarayonini videoga olishga haqli.

6. 6. PUL SOVRINLARINI TO‘LASH SHARTLARI VA TARTIBI

6.1. 6.1. Pul sovrinini olish uchun G‘olib G‘oliblar aniqlangan kundan boshlab 10 (o‘n) ish kuni ichida ushbu Qoidalarning 1.5-bandida ko‘rsatilgan manzil bo‘yicha Tashkilotchi ofisiga murojaat qilishi va shaxsini aniqlash hamda to‘lovni amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni taqdim etishi shart: pasport yoki ID-kartaning asli, JShShIR (PINFL) va bank rekvizitlari. Shuningdek, Tashkilotchining ichki tartib-taomillarida nazarda tutilgan hujjatlarni, jumladan, shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga rozilikni imzolashi kerak.

6.2. 6.2. Hujjatlar tekshirilgach va zarur hujjatlar imzolangach, pul sovrinlari G‘olibning UZCARD to‘lov tizimiga tegishli bank kartasiga Tashkilotchi belgilagan muddatda o‘tkaziladi. To‘lov muddati hujjatlarning to‘liq to‘plami taqdim etilgan kundan boshlab 15 (o‘n besh) ish kunidan oshmaydi.

6.3. 6.3. Tashkilotchi ushbu Qoidalar shartlarini bajarmagan, shaxsini/noyob ID raqamini tasdiqlamagan yoki noto‘g‘ri ma’lumot taqdim etgan shaxsga sovrin to‘lashni rad etishga haqli.

6.4. 6.4. Agar qonunchilik va ichki tartib-taomillarga muvofiq Tashkilotchi bilan boshqacha kelishilmagan bo‘lsa, sovrinni olish huquqi uchinchi shaxsga o‘tkazilishi mumkin emas.

6.5. 6.5. Agar G‘olib ushbu Qoidalarning 6.1-bandida ko‘rsatilgan muddatda sovrinni olish uchun murojaat qilmasa, sovrinni olish huquqi yo‘qotilgan deb hisoblanadi, tegishli summa esa Tashkilotchi tasarrufiga qaytariladi.

6.6. 6.6. Pul sovrini to‘langanda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i O‘zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga muvofiq Tashkilotchi tomonidan o‘z mablag‘lari hisobidan to‘lanadi.

7. 7. QO‘SHIMCHA SHARTLAR

7.1. 7.1. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi ushbu Qoidalar bilan tanishganini va ularga roziligini tasdiqlaydi, shuningdek, ro‘yxatdan o‘tish, Aksiyani o‘tkazish, G‘oliblarni aniqlash va sovrinlarni to‘lash uchun zarur bo‘lgan hajmda taqdim etilgan shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga rozilik beradi.

7.2. 7.2. Tashkilotchi avtomatlashtirilgan bosishlar, botlar, skriptlar, emulyatorlar va taplar sonini insofsiz ravishda oshirishning boshqa usullaridan himoyalanish uchun texnik cheklovlar va himoya vositalarini qo‘llashga haqli.

7.3. 7.3. Firibgarlik, Aksiya saytining ishiga aralashish, avtomatlashtirilgan vositalardan foydalanish yoki Qoidalarning boshqa buzilishlari aniqlansa, Tashkilotchi tegishli Ishtirokchining natijalarini bekor qilishga va uni Aksiyadan chetlatishga haqli.

7.4. 7.4. Tashkilotchi aloqa uzilishlari, Ishtirokchining qurilmasi, aloqa operatorlarining harakatlari, internetga kirishdagi uzilishlar yoki Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa holatlar tufayli ishtirok etish imkonsiz bo‘lgani uchun javobgar emas.

7.5. 7.5. Tashkilotchi shaxsiy ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq qayta ishlashni ta’minlaydi.

7.6. 7.6. Tashkilotchi qonunchilikda ruxsat etilgan hollarda ushbu Qoidalarga o‘zgartirishlar kiritishga va tegishli ma’lumotlarni o‘zining axborot resurslarida e’lon qilishga haqli.

7.7. 7.7. Aksiyani o‘tkazish bilan bog‘liq barcha masalalar, shuningdek, shikoyat va murojaatlarni yuborish bo‘yicha Ishtirokchi ushbu Qoidalarning 1.5-bandida ko‘rsatilgan aloqa ma’lumotlari orqali Tashkilotchiga murojaat qilishi mumkin.

7.8. 7.8. Aksiyada yuridik shaxslar, shuningdek, Tashkilotchi xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari (turmush o‘rtog‘i, farzandlari, ota-onasi, aka-uka va opa-singillari) ishtirok eta olmaydi.

7.9. 7.9. Ushbu Qoidalarda tartibga solinmagan munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Nizolar imkon qadar muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.